

BADIIY ASARDA FRAZEMALARNING ISHLATILISHI VA LINGVISTIK TAHLIL (ULUG'BEK HAMDAMNING "MUVOZANAT" ROMANI MISOLIDA)

Kaxramonova Parizoda Sherzod qizi

FDU talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11233003>

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy asarlarni lingvistik jihatdan tahlil qilish turlari bayon etilgan. Badiiy asarning lingvistik tahlili misollar va barqaror birikmalar asosida tahlil qilingan va ma'nolari izohlangan. Asarlarni bunday tahlil qilishdan maqsad va uning vazifalari to'liq yoritilgan.

Kalit so'zlar: lingvistika, morfologik, semantik xususiyat, prinsip, frazeologizm, frazema.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ФРАЗОВ В ПРОИЗВЕДЕНИИ ИСКУССТВА И ЛИНГВИСТИКИ АНАЛИЗ (НА ПРИМЕРЕ РОМАНА УЛУБЕКА ХАМДАМА «МУВОЗАНАТ»)

Аннотация. В данной статье описаны виды лингвистического анализа произведений искусства. На основе примеров и устойчивых сочетаний анализируется лингвистический анализ художественного произведения, объясняются его значения. Полностью объяснены цель и задачи такого анализа произведений.

Ключевые слова: языкознание, морфологический, семантический признак, принцип, фразеологизм, фразема.

THE USE OF PHRASES IN A WORK OF ART AND LINGUISTICS ANALYSIS (IN THE EXAMPLE OF ULUGBEK HAMDAM'S NOVEL "MUVOZANAT")

Annotation. This article describes the types of linguistic analysis of works of art. The linguistic analysis of the work of art is analyzed based on examples and stable combinations, and its meanings are explained. The purpose and tasks of such an analysis of the works are fully explained.

Key words: linguistics, morphological, semantic feature, principle, phraseologism, phraseme.

Har qanday badiiy asarni biografik, qiyosiy, lingvistik hamda struktural jihatdan tahlil qilish mumkin. Badiiy asarni lingvistik tahlil qilishda umumiylik va xususiylikning uyg'unligiga amal qilish kerak. Asarning mavzu, janr, uslub, va tiliga xos umumiy belgilar hamda muallif shaxsiga xos xususiy belgilarning badiiy asarda namoyon bo'lganligini izohlashdan iborat. Hozirgi o'zbek so'zlashuvchilarning barchasi uchun umumiy, tushunarli bo'lgan xarakterda leksik, fonetik, morfologik, sintaktik tahlillardan tashqari badiiy asardagi shaxslarning ahamiyati katta. Lingvistik tahlil o'zbek tilshunosligining nazariy bilimlarini tizimli o'rganishning maqbul usullaridan biridir. Tahlil jarayonida til faktlari haqidagi nazariy ma'lumotlar, grammatikaning qonun-qoidalari aniq misollarda amaliyotga tatbiq qilinadi. Tahlil etuvchi har bir til faktining nazariy asoslarini puxta egallashga intiladi.

Lingvistik tahlil uchun misol tanlashda quyidagi tartibga amal qilish talab etiladi:

a) alohida til birligi tanlanadi: tovush, so'z, so'z birikmasi, gap va hokazo;

b) ma'lum kontekst tanlanib, shu matn ichidan til birligi yoki til birliklari olinadi; so'z, uning fonetik yoki morfologik strukturasi o'rganiladi, so'z birikmasi yoki gap bo'lagi tanlanib sintaktik xususiyatlari o'rganiladi;

c) ma'lum kontekst tanlanib, u yaxlitligicha o'rganiladi.

Lingvistik tahlil oldiga qo'yiladigan prinsipial talablar esa quyidagilardan iborat:

1. Ilmiylik psinsipi.
2. Ma'lum sxema asosida ish ko'rish prinsipi.
3. Bir tur tahlilni boshqa tur tahlil bilan aralashtirib yubormaslik psinsipi.
4. Tahlilni sistematik o'tkazib borish psinsipi.

O'zbek tilida frazemalarning nutq uslublariga ko'ra guruhlanishi turlichadir. Jumladan, badiiy uslubga nasriy va nazmiy janrlarda yozilgan asarlar tilida faol ishlatiluvchi frazemalar kiradi. Masalan, barq urmoq, bahra topmoq, hordiq chiqarmoq, rangiga rang qo'shilmoq, gul-gul yashnamoq shular jumlasidandir.

Ushbu maqolada badiiy asar tilini tahlil qilishda hozirgi kunda adabiyotshunoslar tomonidan eng ko'p tahlil qilinayotgan Ulug'bek Hamdamning "Muvozanat" romaniga to'xtaldik. Badiiy asarni, badiiy nutqda qo'llaniladigan so'z va so'z vositalarining ma'no xususiyatlarini ifodadorlik ko'lamini hisobga olgan holda tahlil qilish, asarni tahlil qilish bilan bir qatorda, kitobxonlarning badiiy asardan estetik zavq olishini kuchaytiradi, ularning badiiy asarga bo'lgan qarashlarini rivojlantiradi. Bunda iboralarni badiiy matndan ajratib olgan holda bu frazeologik birliklarning sinonimlik qatori va ma'noviy jihatlari tahlilga olinmoqda. Asarda berilgan frazemalarni "O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati" Sh Rahmatullayevning lug'atidagi ma'nolarini ham keltirib o'tmoqdaman.

Ko'nglini olmoq - kim? kimning? xursand qilish bilan o'ziga xayrixoh qilmoq. O'zi esa hammadan keyin, hammaning ko'nglini olib bo'lgachgina non tishlardi.

Hafsalasi pir bo'lmoq - kimning? ba'zan nimaning? (jonlining) nimadan? biror ishni qilishga bo'lgan istak-intilishi yo'qola yozdi. Yusufning hafsalasi pir bo'lgandek, bir zum kalovlanib turdi-da, so'ng yana qor kechishda davom etdi.

Ko'ngli qolmoq - kimning? kimdan? yoki nimadan? avvalgi yaxshi munosabati o'rniga xush ko'rmaslik hissi uyg'ondi. Ko'nglim qolib ketgan, tushunasami? Qarib qolgan bo'lsam, hechqisi yo'q. Ko'nglim qolgan Masturadan jiyanim, ko'nglim.

Ko'nglini to'kmoq - yengillamoq, ko'nglidagi dardlarlarini kimgadir aytmoq. Endi sizlarga bir ko'nglimni to'kib solsam, azizlarim,- Muhammadjon aka gapga juda chechan, notiq odam edi.

Pixini yorgan - o'taketgan uddaburon, quv. Agar bo'lsami, o'tirganlarning bari Muhammadjon akaning ustamonligiga, pixini yorgan mug'ambirligiga, qari tulkiligiga tan bergan, so'ngra bu voqeani uzoq yillar davomida Yaponiyaning saqichidek chaynab lazzatlangan bo'lardi.

Badiiy nutqda umumtilga xos bo'lmagan ko'chma ma'noli iboralarga ham duch kelamizki, ular muallif tomonidan ijod qilinadi. Masalan, yozuvchi Shuhratning "Oltin zanglamas" asarida "Atlas ko'ylakli, kulgisi yoqimli o'sha qiz Qodir uchun oltin uzukning suvga tushib ketgan zumrad ko'zi bo'ldi" jumlasini berilgan. Bu jumla tarkibidagi "oltin uzukning suvga tushib ketgan zumrad ko'zi" frazemadir. U "nihoyatda qimmatli" degan ma'noni ifodalash vazifasida qo'llanilyapti. Biroq bu frazema umumtilda uchramaydi, u yozuvchi tomonidan umumtildagi "yo'qolgan pichoqning sopi oltin" iborasiga taqlidan ijod qilingan. Bu kabi misollarni Ulug'bek Hamdam ijodida ham uchratishimiz mumkin:

Yaponiyaning saqichidek chaynamoq aynan shu turdagi ibora hisoblanadi. Asarda bu ibora gapni cho'zish degan ma'noda qo'llanilgan: Agar bo'lsami, o'tirganlarning bari Muhammadjon akaning ustamonligiga, pixini yorgan mug'ambirligiga, qari tulkiligiga tan bergan, so'ngra bu voqeani uzoq yillar davomida Yaponiyaning saqichidek chaynab lazzatlangan bo'lardi.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, badiiy asar tilini tahlil qilish, til vositalarining nutqda ma'lum bir uslubiy ma'nolarda qo'llanilishini o'rganish, ularning sintaktik vazifalarini aniqlash, har bir morfologik birlikning semantik, grammatik va sintaktik imkoniyatlarini aniqlash, hozirgi kunda o'zbek tilshunosligi rivojida, xususan, badiiy asar tili yoki boshqa bir matnni tahlil qilishda katta amaliy ahamiyatga ega deb hisoblayman. Shuningdek, badiiy asarning lisoniy xususiyatlarini o'rganish ta'lim jarayonida muhim uslubiy vosita ham sanaladi.

References:

1. Berdialiyeu A., Xidirov R. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Xo'jand, 2013.
2. Hamdam U. Muvozanat. –Toshkent, 2021.
3. Қудратов Т., Нафасов Т. Лингвистик таҳлил. Ўқув қўлланма. –Тошкент, 1981.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining izohli frazeologik lug'ati. –Toshkent, 1978.